

Musobaqalarni o'tkazish va g'oliblarni aniqlash bo'yicha nizom

1-bo'lim. "ROBO WAR" musobaqasini o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom robot texnologiyalari, xususan jangovar robotlar musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, robotlar jangi musobaqalarini xavfsizlik talablariga qat'iy rioya etgan holda, uch bosqichda tashkil etish, ishtirokchilarni saralash, jang maydonini tayyorlash, robotlarning texnik holatini tekshirish hamda musobaqa natijalarini baholash tartibini belgilaydi.

2. Ushbu musobaqa:

robot texnologiyalari va jangovar robotlar yo'nalishi bo'yicha musobaqa tizimini joriy etish orqali yuqori darajadagi texnik, muhandislik, dasturlash va strategik fikrlash qobiliyatiga ega ishtirokchilarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash hamda ularning salohiyatini kompleks baholash;

robototexnika, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va innovatsion texnologiyalar sohasida istiqbolli yoshlarni saralash, ularni bosqichma-bosqich tayyorlash hamda zamonaviy texnologik kadrlar zaxirasini shakllantirish;

iqtidorli ishtirokchilarning individual qobiliyatlari va ixtisoslashuvi asosida robototexnika, muhandislik, dasturlash, texnik ekspluatatsiya va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq yo'nalishlarga maqsadli yo'naltirishni tashkil etish;

ta'lim jarayonini zamonaviy robot texnologiyalari, innovatsion muhandislik va raqamli kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali yoshlar uchun jozibador, nufuzli va intellektual rivojlanish imkoniyatiga ega muhitni shakllantirish;

jangovar robotlar va robotlashtirilgan tizimlarni samarali boshqara oladigan, innovatsion texnik yechimlar ishlab chiqishga qodir mutaxassislarni tayyorlash orqali texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash;

robotlar jangi va robot texnologiyalari sport yo'nalishining nufuzini oshirish, ishtirokchilarda texnik tafakkur, muhandislik madaniyati hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;

ishtirokchilarning kasbiy tayyorgarligi, texnik mahorati, tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish;

ta'lim muassasalari va jamoalar o'rtasida robotlarni loyihalash, yig'ish, dasturlash va boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda tajriba almashishni tashkil etish;

robot texnologiyalari va jangovar robotlar sport yo'nalishini yanada rivojlantirish, zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash va texnik reglamentlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ishtirokchilarda o'z bilim va texnik salohiyatiga bo'lgan ishonchni shakllantirish, muammolarga innovatsion yondashuvni rivojlantirish;

ta'lim muassasalari va texnik to'garaklarda robototexnika yo'nalishini rivojlantirish hamda ishtirokchilarning mustaqil texnik ijodkorligini qo'llab-quvvatlash;

mas'ul tashkilotlar, ta'lim muassasalari va jamoalar o'rtasida yuksak texnik madaniyat, sog'lom raqobat muhiti va hamkorlikni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

3. Tashkiliy qo'mita – musobaqaning tashkiliy ishlari va xavfsizlik bilan bog'liq barcha jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi asosiy organ hisoblanadi.

II. Musobaqani tashkil etish tartibi

4. Tashkiliy qo'mita quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

musobaqani tayyorlash, rejalashtirish va o'tkazish bo'yicha umumiy rahbarlikni amalga oshirish;

musobaqa o'tkaziladigan hudud, arena, texnik zonalar, tomoshabinlar hududi hamda xavfsizlik perimetrini tashkil etish;

elektr ta'minoti, yoritish, aloqa vositalari, videokuzatuv va signalizatsiya tizimlarini tayyorlash va ishga tushirish;

ishtirokchilar, hakamlar hay'ati va texnik mutaxassislar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

xavfsizlik texnikasi bo'yicha majburiy yo'riqnomalarni tashkil etish;

musobaqa reglamenti, janglar jadvali, saralash va final bosqichlari tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash;

tibbiy xizmat, yong'in xavfsizligi hamda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik choralarini tashkil etish;

moddiy-texnik ta'minotni muvofiqlashtirish;

musobaqa davomida mazkur Nizom talablariga rioya etilishi ustidan nazorat olib borish.

Tashkiliy qo'mita qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda barcha ishtirokchilar uchun majburiy hisoblanadi.

5. Musobaqa jarayonining xolis, adolatli va belgilangan tartib asosida o'tkazilishini ta'minlash maqsadida hakamlar hay'ati tuziladi.

Hakamlar hay'ati tarkibi robototexnika, mexatronika, avtomatika, texnik xavfsizlik hamda robotlar jangi sohasida tajribaga ega mutaxassislardan shakllantiriladi.

Hakamlar hay'ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

musobaqani mazkur Nizom asosida olib borish va nazorat qilish;

ishtirokchilarning texnik va xavfsizlik talablariga rioya etishini tekshirish;

robotlarning texnik ko'rigini amalga oshirish;

musobaqa jarayonida qoidabuzarliklarni aniqlash va tegishli choralar ko'rish;

ballarni hisoblash va natijalarni rasmiylashtirish;
 g'oliblarni aniqlash bo'yicha xulosa chiqarish;
 musobaqa bilan bog'liq tezkor qarorlar qabul qilish;
 musobaqa davomida xavfsizlik talablariga rioya etilishi ustidan nazorat olib borish.

Hakamlar hay'ati qarorlari musobaqa jarayonida majburiy hisoblanadi.

Hakamlar hay'ati faoliyatiga noqonuniy aralashish taqiqlanadi.

5. Musobaqa jarayonida yuzaga kelgan bahsli holatlar va hakamlar hay'ati qarorlari yuzasidan murojaatlarni ko'rib chiqish maqsadida Tashkiliy qo'mita tomonidan Apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi kamida 3 nafar mustaqil va xolis mutaxassislardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Apellyatsiya komissiyasi quyidagi vakolatlarga ega:

ishtirokchilar tomonidan berilgan apellyatsiyalarni qabul qilish va ko'rib chiqish;

hakamlar hay'ati qarorlari yuzasidan asosli murojaatlarni tahlil qilish;

mazkur Nizom qoidalari bajarilishi (buzilishi) holatlarini, shuningdek videoyozuvlar, texnik xulosalar va boshqa materiallarni o'rganish;

Tashkiliy qo'mitaga xulosa berish.

Apellyatsiya shikoyati jang natijalari e'lon qilingandan so'ng, keyingi jang boshlanishidan oldin yozma shaklda topshirilishi shart. Apellyatsiya komissiyasi qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va yakuniy hisoblanadi.

III. Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar

6. Musobaqada jamoaviy tartibda ishtirok etiladi.

Har bir jamoa 1-3 kishidan iborat:

jamoa sardori 1-nafar;

robot operatori 1-nafar;

texnik mutaxassis 1-nafar;

7. Jamoa sardori jamoa a'zolari tomonidan mazkur Nizom, texnik reglament va xavfsizlik talablariga rioya etilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Jamoa sardori:

hakamlar hay'ati bilan rasmiy aloqa olib boradi;

jamoa nomidan murojaat qilish huquqiga ega;

texnik nosozlik yoki xavfli holatlar haqida zudlik bilan xabar beradi;

jamoa intizomini ta'minlaydi.

8. Ishtirokchilarga mazkur Nizom talablariga rioya etishi, belgilangan vaqtda musobaqa hududiga yetib kelishi, hakamlar hay'ati qarorlarini bajarishi, robot va texnik vositalardan xavfsiz foydalanish majburiyatlar yuklatiladi.

Ishtirokchilar boshqa jamoaga xalaqit berish, hakamlar faoliyatiga aralashish, xavfli harakatlarni amalga oshirish, robotni nazoratsiz ishga tushirish, taqiqlangan texnologiyalardan foydalanish taqiqlanadi.

Xavfsizlik talablarini buzgan ishtirokchi hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra musobaqadan chetlashtiriladi.

IV. Robotlarga qo'yiladigan texnik talablar

10. Musobaqada foydalaniladigan barcha jangovar robotlar mazkur Nizom talablariga to'liq mos bo'lishi shart.

Robotlar:

texnik jihatdan xavfsiz;

mexanik jihatdan barqaror;

boshqaruvga to'liq bo'ysunuvchi;

jang olib borishga yaroqli holatda bo'lishi lozim.

Musobaqada foydalaniladigan barcha robotlar jamoalar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan yig'ilgan bo'lishi shart.

11. Musobaqada ishtirok etuvchi robotning maksimal ruxsat etilgan texnik ko'rsatkichlari quyidagicha belgilanadi:

maksimal vazni — 70 kilogramm;

maksimal o'lchami — 70x70x70 santimetr (eni, uzunligi va balandligi).

Robot vazniga quyidagilar majburiy tartibda kiritiladi:

karkas;

zirh va himoya qismlari;

jangovar qurol mexanizmlari;

motor va reduktorlar;

elektron boshqaruv tizimlari;

batareya va quvvat manbalari;

barcha mahkamlash elementlari.

Robot vazni texnik inspeksiya vaqtida kalibrlangan tarozi yordamida aniqlanadi. Belgilangan vazn yoki o'lcham me'yoridan oshgan robot musobaqaga qo'yilmaydi.

12. Robotlarning elektr ta'minoti xavfsiz va barqaror ishlash talablariga javob berishi shart. Musobaqada quyidagi elektr parametrlari belgilanadi:

ruxsat etilgan quvvatlash kuchlanishi – 12 voltdan 48 voltgacha;

elektr zanjirlari izolyatsiyalangan bo'lishi;

qisqa tutashuvdan himoya tizimi mavjud bo'lishi;

tok va quvvat limitlari texnik reglament talablaridan oshmasligi shart.

Kuchlanishni konvertor yoki boshqa texnik vositalar orqali 48 voltdan yuqori qiymatga oshirish taqiqlanadi.

13. Robotlarni boshqarishda foydalaniladigan radioaloqa tizimlari mazkur Nizom talablariga mos bo'lishi shart.

Musobaqada quyidagi radiochastotalardan foydalanishga ruxsat etiladi:

868 MHz;

915 MHz;

2.4 GHz;

5.8 GHz.

14. Radio kuchaytirgichlar, signal bostiruvchi qurilmalar, jammerlar va boshqa robot boshqaruviga aralashuvchi vositalardan foydalanish qat'iyon taqiqlanadi. Robot boshqaruv tizimi barqaror, himoyalangan, uzilishsiz ishlovchi bo'lishi lozim.

15. Robotning yurish tizimi musobaqa davomida to'liq harakatlanishni ta'minlashi shart.

Robot:

mustaqil harakatlana olishi;

arena ichida boshqaruvga bo'ysunishi;

jang davomida mexanik barqarorligini saqlashi lozim.

Harakatlantiruvchi motorlar xavfsiz, mazkur Nizom talablariga mos bo'lishi, ortiqcha qizib ketmaydigan bo'lishi kerak.

Motor va uzatma mexanizmlaridan uchqun chiqaruvchi, ochiq aylanuvchi, xavfli darajada vibratsiya hosil qiluvchi tizimlar sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

16. Robotlarda foydalaniladigan batareya va quvvat manbalari texnik xavfsizlik talablariga mos bo'lishi shart.

Akkumulyatorlar mexanik zarbalardan, qisqa tutashuvdan himoyalangan va mahkam o'rnatilgan, yonuvchan materiallardan izolyatsiyalangan bo'lishi lozim.

Shikastlangan, deformatsiyaga uchragan yoki qizib ketuvchi batareyalardan foydalanish taqiqlanadi.

Yonish, tutun chiqishi yoki portlash xavfi aniqlangan holatda musobaqa darhol to'xtatiladi va xavfsizlik guruhi jalb etilib robot arena hududidan tashqariga chiqariladi.

17. Musobaqada quyidagi jangovar mexanizmlardan foydalanishga ruxsat etiladi:

aylanuvchi disk (spinner);

baraban tipidagi qurol (drum spinner);

ko'taruvchi mexanizm (flipper);

zarba beruvchi mexanizm (hammer).

Jangovar qurollar:

mexanik yoki elektromexanik asosda ishlashi;

operator boshqaruviga bo'ysunishi;

xavfsiz ishlashi shart.

Quyidagilarni qo'llash qat'iyon taqiqlanadi:

portlovchi moddalar;

olov chiqaruvchi tizimlar;

pnevmatik o'q otuvchi mexanizmlar;

elektr zarba beruvchi qurilmalar;

lazer va yuqori energiyali nurlanish vositalari;

zaharli yoki kimyoviy moddalar.

Taqiqlangan texnologiyalardan foydalangan jamoa musobaqadan darhol chetlashtiriladi.

V. Arena va xavfsizlik talablari

18. Robotlar jangi musobaqasi maxsus tayyorlangan, yopiq va xavfsizlik talablariga to'liq javob beradigan arena hududida o'tkaziladi.

Arena:

jang jarayonida robotlarning nazoratsiz chiqib ketishini oldini oluvchi;

tomoshabinlar va ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlovchi;

Yuqori zarba yuklamalariga bardosh beruvchi mustahkam konstruksiyaga ega usti yopiq bo'lishi shart.

Arena shakli:

to'rtburchak yoki sakkizburchak ko'rinishida bo'lishiga ruxsat etiladi.

arena ichki jang maydonining o'lchami: maksimal 8 x 8 metrgacha bo'ladi;

minimal balandligi: 1.5 metrgacha etib belgilanadi.

Arena konstruksiyasi:

metall karkas (kvadrat profil 100 x 100 x 5 mm);

zarbaga chidamli himoya devorlari (Monolit polikarbonat 20 mm va po'lat setka 8 mm);

zarbaga chidamli ustki qoplama (Monolit polikarbonat 15 mm);

mustahkam pol qoplamasi (silliqlik po'lat list 10 mm);

xavfsizlik to'siqlari asosida qurilishi lozim.

19. Arena atrofida tomoshabinlar va ishtirokchilarni himoya qilish maqsadida maxsus himoya konstruksiyalari o'rnatilishi shart.

Himoya devorlari:

metall karkas asosida;

yuqori zarbaga chidamli;

deformatsiyaga bardoshli bo'lishi lozim.

Arena kuzatuv qismi uchun:

polikarbonat;

organik shisha yoki shunga teng mustahkamlikdagi shaffof himoya materiallaridan foydalanilishi shart.

Himoya oynalari:

robot zarbalariga bardosh beruvchi;

yorilib parchalanmaydigan hamda tomoshabinlarga xavf tug'dirmaydigan talablarga javob berishi lozim.

Arena himoya konstruksiyalarida yoriq, bo'shashgan mahkamlash, deformatsiya, ochiq xavfli zona bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

20. Tomoshabinlar va xavfsizlik masofasi - Tomoshabinlar, kuzatuvchilar hamda musobaqaga bevosita aloqador bo'lmagan shaxslar arena xavfsizlik hududidan tashqarida joylashtiriladi.

Tomoshabinlar uchun alohida kuzatuv zonasi, xavfsizlik to'siqlari, kirish va chiqish yo'laklari tashkil etilishi shart. Tomoshabinlarning arena himoya devorlariga yaqinlashishi, xavfsizlik hududiga kirishi yoki jang maydoniga buyum tashlashi taqiqlanadi.

Musobaqa davomida faqat hakamlar hay'ati, texnik mutaxassislar, jamoa operatorlari, xavfsizlik xodimlari maxsus ruxsat asosida arena texnik zonasiga kirishi mumkin.

21. Robot nazoratdan chiqib ketgan, xavfli harakatni amalga oshirgan yoki arena xavfsizligiga tahdid tug'dirgan holatlarda bosh hakam jangni darhol to'xtatish huquqiga ega.

Bunday holatlarda robot harakati cheklanadi, jang vaqtincha to'xtatiladi, texnik tekshiruv o'tkaziladi va xavfsizlik holati qayta baholanadi.

Texnik mutaxassis xulosasiga ko'ra jang davom ettirilishi qayta boshlanishi yoki robotning musobaqadan chetlashtirilishi to'g'risida qaror qabul qilinadi. Arena hududida nazoratsiz harakatlanayotgan robotga yaqinlashish qat'iy taqiqlanadi.

22. Musobaqa o'tkaziladigan hududda yong'in xavfsizligi talablari qat'iy ta'minlanishi shart.

Arena va texnik zonalarda yong'in o'chirish vositalari, qum qutilari, elektr xavfsizligi vositalari, birlamchi yong'inga qarshi jihozlar mavjud bo'lishi lozim. Yonuvchan, portlovchi yoki xavfli moddalarni arena hududiga olib kirish taqiqlanadi.

Akkumulyator qizishi, qisqa tutashuv, tutun chiqishi yoki yong'in xavfi aniqlangan holatda:

- jang darhol to'xtatiladi;
- xavfsizlik guruhi jalb qilinadi;
- arena xavfsizlik rejimiga o'tkaziladi;
- hodisa bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

23. Evakuatsiya va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi - Musobaqa o'tkaziladigan hududda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish va evakuatsiya tartibi oldindan ishlab chiqilishi va barcha ishtirokchilarga yetkazilishi shart.

Arena hududida evakuatsiya chiqish yo'laklari, xavfsizlik belgilar, favqulodda yig'ilish hududi aniq belgilangan bo'lishi lozim.

Favqulodda vaziyat yuzaga kelganda bosh hakam yoki xavfsizlik xodimi tomonidan maxsus signal beriladi, barcha janglar darhol to'xtatiladi. Ishtirokchilar va tomoshabinlar belgilangan tartibda evakuatsiya qilinadi.

Evakuatsiya vaqtida sarosima keltirib chiqarish, arena hududiga qayta kirish, xavfsizlik xodimlari ko'rsatmalarini bajarmaslik taqiqlanadi.

VI. Janglarni o'tkazish tartibi

24. Robotlar jangi musobaqasi mazkur Nizom talablari asosida arena hududida o'tkaziladi.

Har bir jang bir robotga qarshi bir robot (1×1) formatida, hakamlar nazorati ostida va belgilangan vaqt davomida o'tkaziladi.

Jang boshlanishidan oldin hakam tomonidan robotlarning texnik tayyorligi, boshqaruv tizimi va arena xavfsizligi tekshiriladi. Hakam ruxsatisiz robotni ishga tushirish taqiqlanadi.

Musobaqa bosqichlari:

ro'yxatdan o'tish;

saralash;

pley-off;

yarim final;

final bosqichlari asosida o'tkaziladi.

Janglar "Mag'lub bo'lgan chiqib ketadi" tamoyili asosida tashkil etiladi. Final bosqichiga yetib kelgan ikki jamoa 1-o'rin va 2-o'rin uchun jang qiladi.

Yarim finalda mag'lub bo'lgan jamoalar o'rtasida: 3-o'rin uchun alohida jang o'tkaziladi.

Hakamlar hay'ati zarur hollarda qayta jang, qo'shimcha raund belgilash huquqiga ega.

25. Har bir jangning asosiy davomiyligi 3 daqiqa etib belgilanadi.

Qo'shimcha vaqt yoki qayta jang o'tkazish zarurati hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra belgilanadi. Jang vaqti hakam tomonidan berilgan rasmiy signal bilan boshlanadi va yakunlanadi.

26. Jangni boshlash va to'xtatish tartibi - Jang bosh hakamning ruxsati, maxsus start signali asosida boshlanadi.

Quyidagi holatlarda jang vaqtincha yoki to'liq to'xtatiladi:

robot nazoratdan chiqib ketganda;

xavfsizlik talablariga tahdid yuzaga kelganda;

texnik nosozlik aniqlanganda;

arena konstruksiyasiga zarar yetganda;

yong'in yoki tutun kuzatilganda;

hakamlar hay'ati zarur deb topganda.

Jang to'xtatilgandan so'ng hakam ruxsatisiz robotga yaqinlashish yoki uni qayta ishga tushirish taqiqlanadi.

27. G'olibni aniqlash tartibi - Jang g'olibi quyidagi mezonlardan biri asosida aniqlanadi:

nokaut;

texnik mag'lubiyat;

ballar ustunligi.

Agar jang belgilangan vaqt ichida yakunlanmasa, g'olib hakamlar hay'ati tomonidan ballik tizim asosida aniqlanadi.

28. G‘olib jamoani aniqlash maqsadida jang davomida ishtirokchilarga quyidagi mezonlar asosida cheklanmagan miqdorda ball beriladi:

Raqib robot bilan kamida 1 metr masofa saqlagan holda robotning korpusi yoki tashqi qoplamasi orqali berilgan har bir samarali zarba uchun 1 ball beriladi.

Keyingi ballni qo‘lga kiritish uchun robot qayta kamida 1 metr masofa olishi shart.

Masofa olinmasdan ketma-ket berilgan zarbalar bitta zarba sifatida baholanadi.

Raqib robot bilan kamida 1 metr masofa saqlagan holda robot quroli orqali berilgan samarali zarba uchun 3 ball beriladi.

Keyingi ballni qo‘lga kiritish uchun robot qayta kamida 1 metr masofa olishi shart.

Masofa olinmasdan ketma-ket berilgan zarbalar bitta zarba sifatida hisoblanadi.

Jangovar yoki yurish mexanizmi ishdan chiqqan deb topilgan holatlarda 5 ball beriladi.

Bir nechta jiddiy zarar mavjud bo‘lgan taqdirda ham umumiy ball 5 ball etib hisoblanadi.

29. Quyidagi holatlarda robot nokaut deb topiladi:

10 soniya davomida mustaqil harakatlana olmasa;

arena ichida ag‘darilib qolib jangni davom ettira olmasa;

boshqaruv signali yo‘qolsa;

jangovar mexanizmlari to‘liq ishdan chiqsa.

30. Quyidagi holatlarda texnik mag‘lubiyat beriladi:

texnik reglament buzilganda;

xavfsizlik talablariga rioya etilmaganda;

taqiqlangan texnologiyalardan foydalanilganda;

hakam ko‘rsatmalari bajarilmaganda;

robot jang uchun xavfli deb topilganda.

Texnik mag‘lubiyat to‘g‘risidagi qaror bosh hakam tomonidan qabul qilinadi.

31. Hakamlar hay‘atining barcha qarorlari ovoz berish yo‘li orqali amalga oshiriladi, bunda ko‘p ovoz to‘plagan taklif qabul qilinadi va rasmiylashtiriladi. Ovoz berish vaqtida ovozlar soni teng kelib qolgan hollarda bosh hakamning ovozi hal qiluvchi yakuniy qaror sanaladi va imzolaydi.

VII. Musobaqa g‘oliblarini aniqlash tartibi

32. Musobaqa g‘oliblari hakamlar hay‘ati tomonidan jang natijalari, ballar tizimi, texnik ustunlik hamda mazkur Nizom talablariga asosan aniqlanadi.

Hakamlar hay‘ati qarori:

rasmiy bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi;

hakamlar hay‘ati a‘zolari tomonidan imzolanadi;

Tasdiqlangan qaror yakuniy hisoblanadi.

32. G'oliblarni quyidagi tartibda rag'batlantiriladi:

1-o'rin: 20 000 000 so'm pul mukofoti;

2-o'rin: 15 000 000 so'm pul mukofoti;

3-o'rin: 10 000 000 so'm pul mukofoti.

Shuningdek, g'oliblar pul mukofoti bilan birgalikda sertifikat, kubok, medal bilan taqdirlanishi mumkin.

33. Musobaqaning final bosqichida alohida mahorat ko'rsatgan ishtirokchilar quyidagi nominatsiyalar bilan taqdirlanishi mumkin:

“Eng yaxshi jangovar robot”;

“Eng yaxshi konstruktor”;

“Eng yaxshi operator”;

“Eng innovatsion texnik yechim”;

“Eng yaxshi dizayn”.

Maxsus nominatsiyalar g'oliblari quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:
texnik mahorat;

jang samaradorligi;

innovatsion yondashuv;

robotning texnik sifati;

jamoat natijasiga qo'shgan hissasi;

intizom va xavfsizlik qoidalariga rioya etish darajasi.

Maxsus nominatsiyalar g'oliblari hakamlar hay'ati qaroriga ko'ra diplom, esdalik sovg'alari va maxsus sovrinlar bilan taqdirlanadi.

VIII. Yakunlovchi qoidalar

34. Ushbu Nizom talablari buzilishi bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.